

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI VA
BAHOLASH MEZONI

KIRISH IMTIHONLARIDA "CHET (INGLIZ, FRANSUZ, NEMIS) TILI"
FANI MAVJUD BARCHA TURDAGI YO'NALISHLAR
(KO'ZI OJIZLAR) UCHUN DASTUR
(ta'lif yo'naliishlarga mos fan bo'yicha)

Toshkent - 2022

Dastur Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'quv – uslubiy Kengashining 2022-yil “18” iyul dagi 2 – sonli majlisida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

Tuzuvchilar:

O'zMU “Ingliz filologiyasi” kafedrasi mudiri,
f.f.d., prof v.b. Djumabaeva J.
O'zMU “Qiyosiy tilshunoslik” kafedrasi mudiri
f.f.n., dots. Sadullaeva N.
O'zMU “Nemis filologiyasi” kafedrasi mudiri,
f.f.n., prof. Imyaminova Sh.

Taqrizchilar:

O'zMU “Qiyosiy tilshunoslik” kafedrasi f.f.d.
prof. Siddikova I.
“Fransuz filologiyasi” kafedrasi mudiri,
f.f.n. Jafarova D.

KIRISH

Ushbu dastur **ingliz, nemis va fransuz** tillaridan imtihon topshiradigan ko‘zi ojiz abituriyentlarga mo‘ljallangan bo‘lib, unda abituriyentlarning chet tillarining tinglab tushunish, og‘zaki nutq ko‘nikmasi, matnda ishlatilgan so‘z va iboralarni tarjima qila olish qobiliyati aniqlanadi.

Dasturda keltirilgan ushbu mavzular abituriyentlarning xorijiy tillarda bilimlarini baholashda muhim o‘rin tutadi.

Fanning maqsadi va vazifasi

Mazkur dasturning maqsadi ko‘zi ojiz abituriyentlarning ingliz, fransuz va nemis tili fanlaridan bilim darajasini aniqlashdan iborat.

Dasturning vazifasi ko‘zi ojiz abituriyentlarning chet tillarida eshitish ko‘nikmalarini aniqlash;

- abiturentning mustaqil fikrini bayon etish kompetensiyasini bilish;
- original matnni tushunish darajasini aniqlash;
- berilgan matnlar yuzasidan o‘zining fikr mulohazasini chet tilida bayon qilish;
- og‘zaki nutq ko‘nikmasi, leksik til boyligi, talaffuzini aniqlash;
- abiturentning og‘zaki suhbatga kirishish kompetensiyalarni aniqlashdan iborat.

ASOSIY QISM

Fonetika. Abituriyentlarni o‘z fikrini erkin, ifodali va to‘g‘ri bayon etishlari uchun fonetik qoidalarga rioya qilishi muhim hisoblanadi. Bunda asosan ular so‘zlarning to‘g‘ri talaffuz qilishi, ohangga ahamiyat bergen holda gapirishi va urg‘ularning to‘g‘ri qo‘llanilishiga ahamiyat berish kerak.

Grammatika. Chet tilidagi nutqni to‘g‘ri bayon qilishda asosan gaplarda so‘z tartibi, gaplarning maqsadiga ko‘ra turlarini bilish muhim ahamiyat kasb qiladi. Bundan tashqari abituriyentlar quyidagi grammatik xodisalarini bilishi kerak:

Mustaqil so‘z turkumlari: Ot. Turdosh va atoqli hamda ularning turlari, otlarda son kategoriysi, otlarning ko‘plik yasalish formalari va ularning turlanishi haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Sifat. Sifat darajalari, asliy va nisbiy sifatlar, sifatlarning yasalishi, sifatlarning otlashishi va ularning turlanishi.

Son. Sanoq va tartib sonlarning yasalishi va qo‘llanilishi. Sonlarning otlashishi. Olmosh va ularning turlari. Olmoshlarning kelishiklarda qo‘llanilishi va ularning gapdagisi sintaktik vazifikasi.

Fe'l. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'llarning yasalishi. Fe'llarning tuslanishi. Fe'l nisbatlari. Mayl kategoriyasi. Fe'l zamonlari.

Ravish va ularning turlari, yasalishi.

Yordamchi so'z turkumlari: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama va ularning ma'no va tuzilish jihatdan turlari.

Modal so'zlar, undov so'zlar, taqlid so'zlar, tasdiq va inkor so'zlar.

Sintaksis. Gap. Gap bo'laklari. Bog'lovchilar va ularning turlari. Uyushiq bo'lakli gaplar. Ajratilgan bo'laklar. Gapning tuzilishi jihatdan turlari.

Qo'shma gap. Ergash gapli qo'shma gap va ularning turlari.

Og'zaki suhbatning taxminiy mavzulari:

1.O'zbekiston. O'zbekiston tarixi, aholisi, maydoni, chegarasi, poytaxti, tarixiy shaharlari, milliy bayramlari, O'zbekistonning chet davlatlar bilan aloqasi.

2.Tili o'rganilayotgan mamlakat tarixi, aholisi, geografik joylashishi, sanoati, siyosiy tizimi, yirik shaxarlari, milliy bayramlari, buyuk shaxslari.

3. Yil fasllari.

4. Tarjimai holi, mening oilam, mening ish kunim, mening do'stim, mening ona shahrim, mening sevimli yozuvchim (shoirim), men tanlagan kasb.

5. Mening dam olish kunim, teatr, kino, kutubxonaga tashrif, sport mening hayotimda.

"CHET (INGLIZ, NEMIS, FRANSUZ) TILI" FANIDAN IJODIY (KASBIY) IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI

Ko'zi ojizlar uchun ijodiy imtixon 5 ballik tizimda baholanadi.

Ko'zi ojizlar uchun kirish imtihonlari og'zaki tarzda o'tkaziladi.

Ijodiy imtihonni baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:

1. Abiturientning javobi "5-baho" (a'lo)ga baholanishi uchun:

- nazariy bilimlarga ega bo'lsa;
- ijodiy fikrlay olsa;
- grammatikani chuqur bilsa;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olsa;
- erkin suhbat olib borish ko'nikmasiga ega bo'lsa.

2. Abiturientning javobi "4-baho" (yaxshi) ga baholanishi uchun:

- nazariy bilimlarga ega bo'lsa;
- ijodiy fikrlay olsa;
- grammatikani bilsa;

-olgan bilimlarini amalda qo'llay olsa;
-erkin suhbat olib borishda biroz qiynalsa.

3. Abiturientning javobi “3-baho” (qoniqarli)ga baholanishi uchun:

- nazariy bilimlarga ega bo'lsa;
- nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashga qiynalsa;
- fikrini to'liq bayon qila olmasa;
- savollarga to'liq javob bera olmasa;
- grammatikani to'liq bilmasa.

4. Abiturientning javobi “2-baho” (qoniqarsiz)ga baholanishi uchun:

- nazariy bilimga va amaliy ko'nikmaga ega bo'lmasa;
- tarjima qila olmasa;
- savollarga javob bera olmasa;
- grammatikani bilmasa;
- erkin muloqotga kirisha olmasa.

Appelyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Appelyatsiya komissiyasi universitet qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abiturient ijodiy (kasbiy) imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtidan boshlab, 24 soat ichida appelyatsiya komissiyasiga og'zaki yoki yozma shaklda murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilinmaydi.

Appelyatsiya komissiyasi abiturientning faqat o'zining ishi bo'yicha bildirilgan murojaatini yuzma yuz abiturientning ishtirokida ko'rib chiqadi va yakuniy qarorni beradi.

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi



R. Allaberdiyev